

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



№1-SO N

2026-YIL, YANVAR

9710 xalqaro daraja



No240874

ISSN: 3060-4621





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU, “Marketing” kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NamDTU, “Marketing” kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU “Marketing” kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrziyevich, i.f.d., prof., TDIU, Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU, Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamSI, “Marketing” kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU, “Innovatsion menejment” kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU, “Axborot texnologiyalari” kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., NamDTU, “Menejment” kafedrasini mudiri, dotsent;

Fayzullayev Jaylonbek Sultonovich, DSc., TDIU, “Yashil iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori;

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Djuraev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori;

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU, Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor;

Abduvaxidov Abdumalik Maxkamovich, i.f.d., TDIU, “Turizm va servis” kafedrasini professori;

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU, “Biznes boshqaruvi va logistika” kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University “Iqtisodiyot” fakulteti dekani, professor;

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU, “Yashil” iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU, Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU, Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Boltaev Umiddjon Talant o'g'li, i.f.f.d., PhD., Toshkent arxitektura qurilish instituti “Iqtisodiyot va ko'chmas mulkni boshqarish” kafedrasini dotsenti;

Bayxonov Bahodirjon Tursunbayevich, i.f.d., DSc, NamDTU, “Menejment” kafedrasini dotsenti;

Maxmudov Toxirjon Olimjonovich, PhD., NamDTU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Pardayev Sherzod Xolmurodovich, i.f.f.d., PhD., TDIU, “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasini dotsenti;

Beknazarov Behzod Baxtiyor o'g'li, PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasini dotsent v.b.

Abduvohidov Behzod xxx, PhD., Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini o'qituvchisi;

Rajabova Moxichexra Abduxolikovna, PhD., Buxoro davlat universiteti marketing va menejment kafedrasini o'qituvchisi.

Elektron nashr 710 sahifa. E'lon qilishga 2026-yil 31-yanvarda ruxsat etildi

MUNDARIJA

YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLAR VA O‘ZINI-O‘ZI BAND QILGAN SHAXSLAR SEGMENTI UCHUN SHAFFOF RAQAMLI TO‘LOV TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH	8
Isamuxamedov Anvar Sadiqovich	
OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA BARQAROR RAQOBAT USTUNLIKLARINI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA STRATEGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	15
Ismailova Nilufar Sabitdjanovna	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH RESURSLARINI STRATEGIK BOSHQARISH	27
Kazakov Olim Sabirovich	
ЭТИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ СБОРА ПОТРЕБИТЕЛЬСКИХ ДАННЫХ В МЕЖДУНАРОДНЫХ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ.....	35
Адылова Зульфия Джавдатовна, Юлчиева Мадинабону Отабек кизи	
XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA SIRKULAR IQTISOD TAMOYILLARIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY DAVLATLARNING ILG‘OR TAJRIBALARI	48
Nuritdinov Ramziddin	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ НЕФТЕГАЗОВЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	60
Бекмухамедова Малика Искандарбековна	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ НЕРАВЕНСТВО: ПРИЧИНЫ И МЕРЫ ПРЕОДОЛЕНИЯ.....	74
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
IJTIMOYIY-IQTISODIY O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA CHAKANA SAVDO XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	83
Muxamedova Aziza Ravshanovna	
INTELLIGENT INTRUSION DETECTION: LEVERAGING REINFORCEMENT LEARNING FOR ECONOMIC SECURITY AGAINST DDOS THREATS.....	90
Bekov Sanjar Nigmandjanovich	
RAQAMLI MARKETINGNING YOSHLAR SEGMENTIDA RIVOJLANISHI	101
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna, Ergashov Abdullo Ramazon o‘g‘li	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA BOZOR AXBOROTLARIDAN FOYDALANISH VA AVTOMATIK TAHLIL QILISH TIZIMLARINI JORIY ETISH	106
Yo‘ldoshev Nodirbek Ne‘matjon o‘g‘li	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG‘ALLIK DARAJASINING O‘ZGARISH DINAMIKASI TAHLILI.....	114
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
TOWARDS AN INTEGRATIVE MODEL OF THE COUNTRY IMAGE	121
Duschanov Alisher Sherzod ugli	

BUXORO VILOYATIDA MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI TAHLILI VA MARKETING MUAMMOLARI.....	133
Jumayeva Zamira Bo‘stonovna	
KORXONALARNING YASHIL MARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHGA NAZARIY VA KONSEPTUAL YONDASHUVLARI.....	140
Sapayev Axmed Durdibayevich	
SANOAT KORXONALARINING UZOQ MUDDATLI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA’MINLASHDA MARKETING YONDASHUVLARI.....	149
Bazarova Mamlakat Supiyevna	
RAQOBAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI VA INSTITUSIONAL MUAMMOLAR.....	159
Akbarov Jasur Ikromjon o‘g‘li	
THE ECONOMIC AND ENVIRONMENTAL EFFICIENCY OF AGRIVOLTAIC SYSTEMS IN UZBEKISTAN’S AGRICULTURAL SECTOR.....	167
Amonov Sardor Zamon o‘g‘li	
EVALUATING RETURN ON MARKETING INVESTMENT IN B2B DISTRIBUTION...175	
Jamoliddinov Fakhriyor Shodiyor o‘g‘li	
THE ROLE OF STRATEGIC MANAGEMENT IN ENHANCING TOURISM DESTINATION COMPETITIVENESS.....	184
Choriyev Farrux Xamroyevich	
TUROPERATORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI VA ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI.....	194
Toshev Akmal Salimovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA AGRAR BOZOR TAHLILI	206
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o‘g‘li	
JAHON ZARGARLIK MAHSULOTLARI BOZORIGA KIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI	214
Azizova Roxila Baxodir qizi	
FERMER XO‘JALIKLARI FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH ASOSIDA IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA’MINLASH	223
Qodirov Zohidjon Eralievich	
SOG‘LIQNI SAQLASH XIZMATLARI SOHASI BARQARORLIGINING HUDUDIY VA DINAMIK TAHLILI.....	229
Ko‘charov Xurshid Xurram o‘g‘li	
TO‘QIMACHILIK MAXSULOTLARI SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARIDAN FOYDALANISH	236
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	243
Нуруллаева Шахноза Тохтасиновна, Saydullayeva Saodat Abdumajitovna	
O‘ZBEKISTON OZIYQ-OVQAT BOZORIDA AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY CHAKANA SAVDO TRANSFORMATSIYALARI.....	250
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o‘g‘li	
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM TIZIMIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLARNING AHAMIYATI	257
Gafurov Anvar Bazarbayevich	

MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHGA XIZMATLAR SOHASINI TA'SIRINI OSHIRISH.....	264
Achilova Firuza Kurbanovna	
IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA EKOLOGIK XAVFSIZLIK BILAN BOG'LIQ XAVF-XATARLARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	274
Shamurotov Nodirbek Bakbergan o'g'li	
OZIQ-OVQAT SANOATI RAQOBATBARDOSHLIGINI INNOVATSION MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH.....	280
Hamroyev Bobir Shoyimovich	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL TURIZMNI XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH.....	289
Hafizov Abdulla Olimjonovich	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКЕ	299
Ниязметова Ёкутхон Ботир қизи	
QURILISHDA LOYIHA BOSHQARUVI STRATEGIYASINING ILMIY-USLUBIY MUAMMOLARI	308
Pulatov Shaxron Axmedovich	
QURILISH KORXONALARINING TASHKILY TUZILMALARINING OMILLAR TA'SIRIDA SHAKILLANISHI	315
Raximova Nilufar Abduazizovna	
O'ZBEKISTON EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN KORXONALARINING MARKETING KOMPLEKSINI MINTAQALAR BOZORLARIGA MOSLASHTIRISH	323
Axmedov Ikrom Akramovich	
MARKETING TAMOYILLARI ASOSIDA MIJOZ VA BANK MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	338
Temirova Sevara Baxodirovna	
TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBALAR	345
Muminova Durdona Saydikadirovna	
TIJORAT BANKLARI BRENDING STRATEGIYASINING BANK IMIJIGA TA'SIRI...355	
Mirzajonova Maftunaxon Jaxongir qizi	
УПРАВЛЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИМИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯМИ НА РЫНКЕ ТРУДА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ГРАВИТАЦИОННОЙ МОДЕЛИ.....	364
Назаров Дмитрий Михайлович, Джурабаев Отабек Джурабаевич	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRUVCHI KORXONALARNING MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI	380
Uzakova Umida Ruziyevna	
ВЛИЯНИЕ КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ФАКТОРОВ НА МАЛЫЙ БИЗНЕС	388
Зокирова Фарангиз	
KIMYO SANOATI KORXONALARI FAOLIYATIDA IQTISODIY SALOHİYAT TUSHUNCHASINING AHAMIYATI.....	395
Vaxobov Shohjahn Valiyevich	

ERKIN IQTISODIY ZONALARNING LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI.....	402
Muxiddinov Mo‘minjon Shavqiddin o‘g‘li	
KLASTER YONDASHUVI ASOSIDA TO‘QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	412
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
QURILISH SANOATIDA INNOVATSION FAOLIYATNI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	420
Ortiqxo‘jayeva Yulduz Azatovna	
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA RISK-MENEJMENTDAN FOYDALANISHNING USLUBIY JIHLTLARI.....	428
Madaminov Bekzod Allayarovich	
BANK RISK-MENEJMENTI TIZIMIDA SUN‘IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	442
Madaminov Bekzod Allayarovich	
XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XALQARO MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	453
Abduvoxirov Behzod	
TIKUV – TRIKOTAJ KORXONALARI MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHDA MOTIVATSIYA USULLARIDAN FOYDALANISH.....	460
Jalilov Jamshid G‘anijonovich	
UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARI	472
Kaxramonov Xurshidjon Shuhrat o‘g‘li	
ADVANCING UZBEKISTAN’S ENERGY SECTOR THROUGH PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS: KEY REFORMS, IMPLEMENTED PROJECTS, AND SUSTAINABILITY PROSPECTS.....	481
Juraev Javohir Tulagan ugli	
ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ МЕДИЦИНСКОГО ТУРИЗМА В РЕГИОНЕ СО СПОСОБОМ КЛАСТЕРИЗАЦИИ МЕДИЦИНСКИХ УЧРЕЖДЕНИЙ.....	489
Юсупова Мехрибон Уктамовна	
TO‘QIMACHILIK SANOATIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH.....	498
Xushvaqtov Shuhrat Abduraufovich	
FRANCHAYZING SUBYEKTLARI O‘RTASIDAGI KOOPERATSIYANI BAHOLASHNING KO‘P MEZONLI METODIKASINI ISHLAB CHIQRISH VA SAMARADORLIKNI ANIQLASH.....	509
Xodjayev Anvar Rasulovich	
ISTE‘MOLCHILARNING BRENDGA SODIQLIGI VA UNING KORXONA DAROMADIGA TA‘SIRINI BAHOLASH.....	523
Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Yuldasheva Zuhrajon Urazboy qizi	
STRATEGIK USULLAR ORQALI MENEJMENT SIFATINI UZLUKSIZ TAKOMILLASHTIRISH.....	529
Djabriyev Akbarali Normurodovich, Muxammadiyev O‘tkir Axmedovich, Ravshanbekova Madinabonu	

MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIDA YALPI ICHKI MAHSULOTNING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDAGI ROLI VA AHAMIYATI	541
Xusanov Murodjon Sunnatullayevich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA XODIMLAR BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KPI TIZIMINING AHAMIYATI	552
Maksudov Zuxriddin Ziyovitdinovich	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING OPTIMAL TUZILMASINI SHAKLLANTIRISH VA MODELLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	561
G'aymatova Dilafro'z G'ofurjonovna	
SANOAT KORXONALARIDA TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH TIZIMI ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	572
Esheva Sarvinoz Axmatovna	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISHNI BOSHQARISH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	583
Shuxratullayev Elmurod Dilmurod o'g'li	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQRISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY MENEJMENT KONSEPSIYALARINI QO'LLASH	597
Nurimbetov Ravshan Ibragimovich	
O'ZBEKISTONDA SPORT FEDERATSIYA VA ASSOTSIATSIYALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH MEXANIZMLARI	610
Radjabov Umed Farmonkulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI KICHIK BIZNESNING INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH	617
Umurzaqov Avazbek Sobirovich	
JAMOAT TRANSPORTI XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINING RAQOBATBARDOSHLIKKA TA'SIRI	628
Berdiyev Temur Azamatovich	
ENERGETIKA TARMOG'INING MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA TA'SIRINING NAZARIY - USLUBIY JIHATLARI	639
Saidov Mash'al Samadovich	
OLIY TA'LIMNING INNOVATSION MUHITIDA TA'LIMDA BOSHQARUVINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH	653
Kabilov Baxron Davronovich	
INTEGRAL INDEKS ASOSIDA HUDUDLARNI TIPOLOGIYALASH: KLASTER TAHLILI VA VIZUALIZATSIYA USULLARI	668
Sattorov Sanjar Abdumurodovich	
MINTAQANING IJOBIY IMIJINI SHAKLLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH (Xorazm viloyati misolida)	685
Ibodullayev Dilshod Ibragimovich	
SANOATNI TARTIBGA SOLISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	696
Xodjayeva Feruza Komilovna	

SANOATNI TARTIBGA SOLISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Xodjayeva Feruza Komilovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada sanoatni tartibga solishning institutsional mexanizmlari tizimli va qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot davomida tartibga solishning huquqiy-normativ bazasi, tashkiliy tuzilmalari, iqtisodiy instrumentlari va nazorat mexanizmlarining o'zaro bog'liqligi o'rganildi. O'zbekiston tajribasi xalqaro amaliyot bilan taqqoslanib, mavjud institutsional bo'shliqlar va rivojlanish imkoniyatlari aniqlangan edi. Natijalar asosida tartibga solish samaradorligini oshirishga qaratilgan konseptual takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqot sanoat siyosatini takomillashtirish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: sanoat siyosati, institutsional mexanizm, tartibga solish, regulyativ siyosat, RIA, iqtisodiy rivojlanish, tranzaksion xarajatlar, davlat boshqaruvi, raqobat siyosati, tartibga solish sifati, institutsional islohotlar, sanoat rivojlanishi, boshqaruv samaradorligi

Аннотация

В данной статье были проанализированы институциональные механизмы регулирования промышленности на основе системного и сравнительного подхода. В ходе исследования изучались правовые основы регулирования, организационные структуры, экономические инструменты и механизмы контроля в их взаимосвязи. Опыт Узбекистана был сопоставлен с международной практикой, что позволило выявить существующие институциональные пробелы и направления развития. На основе полученных результатов были разработаны концептуальные рекомендации по повышению эффективности регулирования. Показано, что предложенные подходы могут служить научной основой для совершенствования промышленной политики.

Ключевые слова: промышленная политика, институциональный механизм, регулирование, регуляторная политика, RIA, экономическое развитие, транзакционные издержки, государственное управление, политика конкуренции, качество регулирования, институциональные реформы, промышленное развитие, эффективность управления

Abstract

This article examined the institutional mechanisms of industrial regulation using a systemic and comparative approach. The study explored the interconnections between legal frameworks, organizational structures, economic instruments, and enforcement mechanisms. Uzbekistan's experience was compared with international practices, which allowed the identification of existing institutional gaps and development opportunities. Based on the findings, conceptual recommendations aimed at improving regulatory effectiveness were developed. The study demonstrated that the

proposed framework could serve as a scientific basis for enhancing industrial policy and strengthening regulatory quality in developing economies.

Keywords: industrial policy, institutional mechanism, regulation, regulatory policy, RIA, economic development, transaction costs, public administration, competition policy, regulatory quality, institutional reforms, industrial development, governance efficiency

KIRISH

Sanoat sektori milliy iqtisodiyotning hal qiluvchi tarkibiy qismi sifatida nafaqat yalpi ichki mahsulot shakllanishiga, balki ishchi o'rinlari yaratish, texnologik innovatsiyalarni tarqatish va eksport salohiyatini oshirishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasida 2022-yilga kelib sanoat sektori yalpi ichki mahsulotning 32,4 foizini tashkil etdi, bu esa iqtisodiyotning sanoat bazasiga ko'p jihatdan tayanishini yaqqol ko'rsatadi [21]. Bunday yuqori ulush tartibga solish muhitining sifatini ayniqsa muhim omilga aylantiradi, zero sanoat subyektlarining investitsion xulq-atvori, texnologik yangilanish sur'atlari va raqobat muhitining shakllanishi ko'p jihatdan tartibga olish institutlarining sifatiga bog'liq bo'ladi.

Institutsional mexanizmlar deganda tartibga soluvchi normalar, qoidalar, tashkiliy tuzilmalar va ularning amalga oshirilishini ta'minlovchi ijroiya vositalarining yaxlit majmuasi tushuniladi. Bu majmua bozor subyektlarining xatti-harakatini shakllantiradi, ularning investitsiya qarorlarini yo'naltiradi va sanoat rivojlanishining uzoq muddatli tendensiyalarini belgilaydi. Shu bois institutsional munosabatlarning sifati va ularning samaradorligini ta'minlovchi mexanizmlar masalasi sanoat siyosatining markaziy muammosiga aylangan.

Jahon amaliyotida tartibga solish islohotlari izchil davom etmoqda. OECD a'zo davlatlarida 2012-yildan buyon "Regulyativ siyosat va boshqaruv to'g'risidagi tavsiya" asosida tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tizimli choralar amalga oshirilmoqda [4]. Yevropa Ittifoqi "Better Regulation" dasturi doirasida tartibga solishning sifat mezonlarini yangilab, regulyativ ta'sir baholashni (Regulatory Impact Assessment - RIA) majburiy tartibga aylantirdi [15]. 2021-yilgi OECD hisobotiga ko'ra, a'zo mamlakatlarning 94 foizi rasmiy RIA talablarini joriy qilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2008-yildagi 60 foizga nisbatan sezilarli o'sishni ifodalaydi [16]. Bu jarayonlar rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan O'zbekiston uchun muhim yo'nalish ko'rsatadi.

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohot doirasida tartibga solish munosabatlarini yangilashga alohida e'tibor qaratildi. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" tartibga solish muhitini optimallashtirish, ortiqcha ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish va tartibga soluvchi organlarning samaradorligini oshirishni strategik vazifalar sifatida belgiladi [21]. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, institutsional mexanizmlarning alohida elementlari o'rtasidagi uyg'unlik hali to'liq ta'minlanmagan: koordinatsiya muammolari, institutsional bo'shliqlar va tartibga solishning ortiqcha yuklari bir qator sohalarda kuzatilmoqda.

Ushbu ilmiy ishning asosiy maqsadi sanoatni tartibga solishning institutsional mexanizmlarini nazariy-metodologik jihatdan asoslash va ularni takomillashtirish yoʻnalishlarini konseptual darajada ishlab chiqishdan iborat. Quyidagi ilmiy vazifalar izchil koʻrib chiqildi: tartibga solish mexanizmlari konsepsiyasining nazariy asoslarini oʻrganish; asosiy maktablar va yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish; Oʻzbekistondagi hozirgi tartibga solish tizimini institutsional tahlil metodlari orqali baholash; xalqaro tajribani umumlashtirish va oʻzbek sharoitiga tatbiq etish imkoniyatlarini aniqlash; takomillashtirish boʻyicha konseptual tavsiyalar ishlab chiqish.

Ilmiy ishning nazariy ahamiyati shundaki, sanoat tartibga olishining institutsional mexanizmlarini tahlil qilishga yaxlit tizimli yondashuv taklif etiladi va bu yondashuv rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotlari uchun mos metodologik asos boʻlib xizmat qiladi. Amaliy ahamiyati esa Oʻzbekistondagi tartibga solish islohotlarini yanada samarali yoʻnalishda rivojlantirish uchun aniq konseptual yoʻl xaritasini taqdim etishida namoyon boʻladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoatni tartibga solishning institutsional asoslari koʻp qatlamli va intellektual jihatdan boy ilmiy muhitda shakllanib keldi. Ushbu sohadagi nazariy bazani toʻrt asosiy yoʻnalishda koʻrib chiqish maqsadga muvofiq: klassik institutsionalizm, normativ tartibga solish nazariyasi, tartibga solish siyosiy iqtisodiyoti va zamonaviy qiyosiy tartibga solish tadqiqotlari.

Institutsional iqtisodiyotning asosiy parametrlarini Duglas Nort ilmiy jihatdan belgilab berdi. Uning fikricha, institutlar jamiyat aʼzolari oʻrtasidagi munosabatlarni tuzilishga soladigan cheklovlar majmuasi boʻlib, rasmiy qoidalar (qonunlar, konstitutsiyalar, xususiy mulk huquqlari) va norasmiy cheklovlardan (xulq-atvor normalari, konvensiyalar, oʻz-oʻzini tartibga solish kodekslari) tashkil topadi [1]. Institutlarning iqtisodiy samaradorlikka taʼsiri tranzaksion xarajatlar orqali amalga oshadi: kuchsiz institutlar axborot assimetriyasini, kontraktlarni bajarish xarajatlarini va noaniqlikni oshirib, investitsiyalar uchun noqulay muhit yaratadi. Bu konsepsiyadan kelib chiqib, tartibga solish mexanizmlarining sifati avvalo ularning tranzaksion xarajatlarni kamaytirish qobiliyati orqali oʻlchanishi lozim.

Oliver Uilyamson bu konsepsiyani sanoat tashkiloti nazariyasi bilan boyitdi. Uning tranzaksion xarajatlar nazariyasiga koʻra, tartibga olish munosabatlari taraflar oʻrtasidagi opportunistik xatti-harakatni cheklash va kontraktlar bajarilishini taʼminlash funksiyasini bajaradi [2]. Uilyamson taʼkidlaydi: tartibga oluvchi institutlarning asosiy vazifasi bozor munosabatlarida muqarrar tarzda vujudga keladigan axborot assimetriyasi, aktivlarning maxsusligi (asset specificity) va noaniqlik muammolarini institutsional yechimlar orqali tartibga solishdir. Tranzaksion xarajatlar yondashuvi tartibga olishning nafaqat huquqiy-rasmiy, balki iqtisodiy-funksional oʻlchamini ham tahlil qilishga imkon beradi.

Elinor Ostromning tadqiqotlari umumiy resurslarni boshqarish muammosini institutsional tahlil orqali hal qildi va zamonaviy tartibga olish nazariyasiga yangi oʻlcham qoʻshdi. Ostrom polisantrik boshqaruv tizimlarining iqtisodiy samaradorligini empirik asosladi: bir necha daraja va markaz orqali amalga oshiriladigan tartibga olish

ko‘pincha markazlashgan davlat tartibga olishidan ustun turadi [11]. Bu xulosa sanoat tartibga olish tizimlarini loyihalashda muhim metodologik mezon bo‘lib xizmat qiladi va O‘zbekistondagi ko‘p darajali boshqaruv tizimini baholashda bevosita tatbiq etilishi mumkin.

Normativ tartibga solish nazariyasida ikkita asosiy maktab alohida o‘ringa ega. Ijtimoiy manfaat nazariyasi (public interest theory) tartibga olishni bozor nosozliklarini bartaraf etish mexanizmi sifatida ko‘radi va davlat aralashuvini umumiy farovonlikni oshirish maqsadida zarur deb hisoblaydi [18]. Bu yondashuv bo‘yicha tartibga olishning asosiy vazifasi - monopoliya kuchini cheklash, salbiy tashqi ta’sirlarni internallizatsiya qilish, axborot assimetriyasini kamaytirish va jamoat ne’matlarini ta’minlash. Biroq bu maktab davlatning o‘zi ham nosozliklarga moyil ekanligini e’tibordan chetda qoldiradi: tartibga oluvchi organlar ham axborot muammolari, tashkiliy manfaatlar va siyosiy bosimdan mutlaqo xoli bo‘la olmaydi.

Jorj Stigler tomonidan asoslangan iqtisodiy tartibga solish nazariyasi bu kamchilikni ko‘rsatdi va tartibga olishni siyosiy bozordagi manfaatlar kurashi mahsuli deb talqin qildi [8]. Stiglerning markaziy g‘oyasiga ko‘ra, tartibga oluvchi organlar vaqt o‘tishi bilan ular nazorat qilishi lozim bo‘lgan sanoat subyektlarining ta’siriga tushib qoladi - bu hodisa "tartibga olish tutib olish" (regulatory capture) nomi bilan ilmiy atamaga aylandi. Natijada tartibga olish keng jamoat manfaatidan ko‘ra tor sanoat manfaatlarini himoya qilish vositasiga aylanib ketadi. Ushbu muammo davlat boshqaruvining institutsional loyihasida tartibga oluvchi organlar mustaqilligini ta’minlash mexanizmlarini yaratish zaruriyatini tug‘diradi.

Sam Peltzman Stigler g‘oyalarini umumlashtirib, tartibga olishni siyosiy bozorning muvozanat natijasi sifatida izohladi [17]. Peltzman modelida tartibga oluvchi organ iste’molchilar va ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi siyosiy kuchlar nisbatiga qarab muvozanat nuqtasini topadi. Bu nazariy ko‘ndalang - nima uchun ba’zi tarmoqlarda tartibga olish iste’molchilar manfaatini, boshqalarida esa ishlab chiqaruvchilar manfaatini himoya qilishga moyil ekanligi - amaliy tartibga olish islohotlarini rejalashtirish uchun muhim savol bo‘lib qoladi.

Rikard Pozner tartibga olish nazariyalari tasnifini chuqurlashtirdi va "davlat erkin raqobatni boshqarish uchun aralashadi" degan zamonaviy tartibga olish qoidasini huquqiy-iqtisodiy tahlil orqali sinovdan o‘tkazdi [10]. Pozner iqtisodiy samaradorlik mezonini tartibga olish siyosatining asosiy yo‘naltiruvchisi sifatida qabul qilishni taklif etdi va bu yondashuv tartibga olishning xarajatlari va foydalarini miqdoriy taqqoslash amaliyotiga asos bo‘ldi.

Ronald Kouz klassik tadqiqotida isbotlab berdiki, agar mulkiy huquqlar aniq belgilangan va tranzaksion xarajatlar ahamiyatsiz bo‘lsa, bozor o‘zi tashqi ta’sirlarni hal qiladi [9]. Bu teoremaning sanoat tartibga olishiga tatbiqi shundan iboratki, davlat aralashuvining zarurligi avvalo tranzaksion xarajatlar darajasiga bog‘liq: tranzaksion xarajatlar yuqori bo‘lgan muhitda institutsional tartibga olish bozor mexanizmlarini o‘rnini bosishi yoki to‘ldirishi zarur bo‘ladi.

Fridrix Xayekning bilim muammosi bo‘yicha klassik maqolasi tartibga olishning epistemologik chegarasini belgilaydi: markazlashgan tartibga oluvchi organ hech

qachon bozor faoliyatida tarqoq tarzda ishlab chiqilgan bilimning to'liq hajmiga ega bo'la olmaydi [24]. Bu epistemologik cheklov tartibga olish mexanizmlarini loyihalashda moslashuvchan va bozor signallaridan faol foydalanadigan yondashuvlar zarurligini asoslaydi. Xayekning bozor mexanizmiga bo'lgan ishonchi tartibga olishni to'liqligicha rad etish uchun emas, balki tartibga olish usullarini selektiv va maqsadli ravishda tanlash uchun muhim metodologik yo'riqnoma bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy qiyosiy siyosat tadqiqotlarida Balduin, Keiv va Lodj "Understanding Regulation" monografiyasida tartibga olish nazariyalarini uchta asosiy guruhga: instrumentalistik (davlatni tartibga olish vositasi sifatida ko'radi), institutsionalistik (tartibga olish tizimlarini tarixiy institutlar mahsuli sifatida tahlil qiladi) va diskursiv (tartibga olish g'oyalari va tilining rolini o'rganadi) yondashuvlarga tasnifladi [3]. Bu tasniflash tartibga olish mexanizmlarini kompleks tahlil qilishda metodologik yo'nalish beradi va biror bir yondashuv yetakchi bo'lganda boshqa yondashuvlarning topilmalarini inobatga olish zarurligini eslatib turadi.

OECD tomonidan 2012-yilda qabul qilingan "Regulyativ siyosat va boshqaruv bo'yicha tavsiya" 12 tamoyil asosida tartibga olish sifatini baholash va rivojlantirish uchun xalqaro standart belgiladi [4]. 2021-yilgi OECD "Regulyativ siyosat panoramasi" hisoboti ushbu tamoyillarning global ko'lamda amaliyotga tatbiq etilishini kuzatib, OECD a'zo mamlakatlarining RIA tizimlarini joriy etishdagi farqlanuvchi tajribalarini qayd etdi [16]. Hisobot ayniqsa tartibga olish ta'sirini baholash jarayonlariga keng jamoatchilik va manfaatdor tomonlar ishtiroki ta'minlangan davlatlarda tartibga olish sifati yuqoriroq ekanligini ko'rsatdi.

Jiovanni Majone "tartibga oluvchi davlat" (regulatory state) konsepsiyasini ishlab chiqdi va 1980-1990 yillar mobaynida G'arbiy Yevropada to'g'ridan-to'g'ri davlat aralashuvidan mustaqil tartibga oluvchi organlar orqali boshqarishga o'tish tendensiyasini tahlil qildi [12]. Majone bu o'tishning asosiy mantig'ini "majburiy tartibga olish" dan "delegatsiyalangan tartibga olish"ga o'tish sifatida ta'rifladi: tartibga olish vakolatlari texnik mustaqillikka ega ixtisoslashgan organlarga topshiriladi, bu esa tartibga olish qarorlarini kundalik siyosiy ta'sirdan himoya qiladi. Ushbu konsepsiya O'zbekistonda tartibga oluvchi organlarning institutsional loyahasini takomillashtirish masalasida bevosita metodologik ahamiyatga ega.

Djankov, La Porta, Lopez-de-Silanes va Shlayfr tomonidan 85 mamlakat bo'yicha o'tkazilgan keng ko'lamli empirik tadqiqot yangi korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish tartibini tahlil qilib, tartibga olish yukining iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sirini statistik asosladi [14]. Tadqiqotning asosiy topilmasi: tartibga olish yukining ortishi bozorga kirish imkoniyatlarini toraytirib, innovatsion faollikni pasaytiradi va korrupsiyani rag'batlantiradi. Bu empirik natija tartibga olishni yengillashtirish islohotlarining iqtisodiy maqsadga muvofiqligini dalillar bilan asoslab beradi.

Levi-Faur tomonidan tahrirlangan "Tartibga olish siyosatining qo'llanmasi" zamonaviy tartibga olish tadqiqotlarini tizimli tarzda jamladi va regulyativ davlat konsepsiyasini yangi bosqichda ko'rib chiqdi [13]. Unda ta'kidlanganidek, bugungi kunda tartibga olish faqat milliy siyosat masalasi emas, balki globallashtirish sharoitida

xalqaro tartibga olish tizimlari va milliy institutlar o'rtasidagi bog'liqlik tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Noll siyosiy iqtisodiyot nuqtai nazaridan tartibga oluvchi organlar siyosiy bosim ostida rasmiy mandatlaridan chetlanishi va tor manfaat guruhlariga xizmat qilishga o'tishi mumkinligini ko'rsatdi [23]. Stiglits va Rozengard esa tartibga olish instrumentlarini tanlash masalasida iqtisodiy samaradorlik va adolatlilik mezonlarini birga ko'rib chiqish zarurligini asosladi va amaliy tartibga olish siyosati uchun normativ mezonlarni ishlab chiqdi [25].

